

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

QURBONOV SALOXIDDIN O‘RMONBEK O‘G‘LI

ISLOM MOLIYASIGA OID SAVDO-SOTIQ TERMINLARINING
STRUKTUR-SEMANTIK TADQIQI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 811.411.21’ 373.46:348.97

KBK: 81.2 – 3 (5Arab): 67.4

Q - 96

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Qurbonov Saloxiddin O'rmonbek o'g'li

Islom moliyasiga oid savdo-sotiq terminlarining struktur-semantik
tadqiqi 3

Курбонов Салохиддин Урмонбек угли

Структурно-семантическое исследование торгово-коммерческих
терминов в сфере исламских финансов 25

Kurbonov Salokhiddin Urmonbek ugli

Structural and semantic study of trading terminology in islamic finance. 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 58

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

QURBONOV SALOXIDDIN O‘RMONBEK O‘G‘LI

ISLOM MOLIYASIGA OID SAVDO-SOTIQ TERMINLARINING
STRUKTUR-SEMANTIK TADQIQI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fil3425 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuos.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Begmatova Buzahro Ma'rufjanovna

yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Usmonova Shoir Rustamovna

filologiya fanlari doktori, professor

Kazakbayev Akbar Akmaljanovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "3" oktyabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (156 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "22" sentyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil "22" sentyabr dagi 156 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.M. Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol. fan. doktori, professor

N.R. Ismatullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol. fan. b. fals. doktori (PhD),
dotsent

X.Z. Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filol. fan. doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida islom moliyasiga oid terminlarni standartlashtirish, ularning tushuncha-termin-ta'rif munosabatini muvofiqlashtirish, milliy tillardagi muqobillarini belgilash hamda elektron lug'at va terminologik bazalarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Arab tilidagi islom moliyasi savdo-sotiq terminlarining tarixiy shakllanishi, struktur modellari, lug'aviy-istilohiy ma'nolari va paradigmatic munosabatlari o'rtasidagi aloqalarning aniq belgilanmaganligi ularni tasniflash, tarjima qilish va amaliyotda bir xil qo'llash bilan bog'liq muayyan nomuvofiqliklarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur holat ushbu terminlarning "*Al-Mavsu'a al-fiqhiyyah al-kuwaytiyyah*" va AAOIFI standartlaridagi qo'llanishini struktur-semantik mezonlar asosida tartibga solish hamda ularning o'zbekcha muqobillarini takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

Dunyo tilshunosligida islom moliyasi terminologiyasiga oid tadqiqotlarda arabcha moliyaviy terminlarning lug'atlardagi ifodasi, boshqa tillarga tarjima qilinishi, yozuv hamda transliteratsiya variantlari, klassik fiqhiy istilohlarning zamonaviy moliyaviy mahsulotlarni nomlashdagi faollashuvi o'rganilmoqda. Mazkur yo'nalishda terminlarni tushuncha-termin-ta'rif munosabati asosida tizimlashtirish, ularning yasash modellari aniqlash, variantlilik va sinonimiyani tartibga solish, ko'p tilli muqobillarni muvofiqlashtirish hamda raqamli moliya ta'sirida shakllanayotgan yangi terminlarni tahlil qilish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Kelgusida AAOIFI standartlaridagi islom moliyasi terminlarining o'zbekcha tarjima masalalari, arab va o'zbek tillarida islom moliyasi terminlarining qiyosiy-tipologik xususiyatlari, raqamli islom moliyasiga oid neologizmlarning leksik-semantik tavsifi, islom moliyasi terminlarining elektron korpusini yaratish, arabcha islom moliyasi terminlarini o'zbek tilida transliteratsiya qilish muammolari hamda islom moliyasi terminlarining ko'p tilli elektron lug'atini yaratish kabi mavzularida tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda islomiy moliyalashtirish xizmatlarini joriy etish, sohaga oid huquqiy-me'yoriy bazani shakllantirish, xalqaro standartlarni milliy amaliyotga moslashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash hamda ilmiy manbalarni o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda, xususan, Markaziy bankning IFSB va INCEIF bilan hamkorligida islomiy moliya industriyasini rivojlantirish, qo'shma tadqiqotlar o'tkazish va sohaga oid adabiyotlarni tarjima qilishga qaratilgan tashabbuslar amalga oshirilmoqda¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "o'tkazilgan so'rovda tadbirkorlarning 38 foizi islom moliyasi asosida resurs olish istagini bildirgan" hamda bunday moliyaviy xizmatlarning joriy etilishi "ko'p investorlar kirib kelishi va 5 milliard

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Markaziy bank va IFSB O'zbekistonda islomiy moliya industriyasini rivojlantirish bo'yicha 'yo'l xaritasi' loyihasini muhokama qildi". 2026-yil 7-may. https://cbu.uz/uz/press_center/news/3843165/; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "O'zbekiston XX Xalqaro islomiy moliya olimlari forumiga mezbonlik qilmoqda". 2025-yil 17-sentabr. https://cbu.uz/uz/press_center/news/2828298/

dollarlik qo'shimcha resurs paydo bo'lishiga turtki beradi"², shu bois islom moliyasiga oid qonunchilik asoslarini takomillashtirish, xalqaro standartlarni milliy amaliyotga tatbiq etish va sohaning o'zbekcha terminologik bazasini shakllantirish zarur. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun arab tilidagi islom moliyasi savdo-sotiq terminlarining o'zbekcha muqobillarini belgilash, ularning imlosi, transliteratsiyasi va ta'riflarini birxillashtirish, ikki tilli terminologik lug'at hamda elektron ma'lumotlar bazasini yaratish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2025-yil 26-sentabrdagi PF-176-son "Tadbirkorlik subyektlarini yangicha yondashuvlar asosida qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2026-yil 30-martdagi PF-48-son "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 1-fevraldagi PQ-4147-son "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi hamda Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasiga a'zoligi to'g'risida", 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Islom moliyasidagi savdo-sotiq terminlari masalasi uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar asosan fiqh, iqtisod, tarjimashunoslik va tilshunoslik kesishmasida kechgan bo'lib, har bir davr o'ziga xos ilmiy yondashuv bilan ajralib turadi. Mumtoz davrda savdo-sotiq terminlarining nazariy asoslari Abu Hanifa, Shofi'iy, Ibn Rushd,

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. 2024-yil 20-avgust. <https://president.uz/oz/lists/view/7481>

Ibn Qudoma, Kosoniy, Marg'iloniy, Ibn Humom³ kabi islom huquqi olimlari asarlarida keng yoritilgan.

O'rta asrlarda Abu Hotim Roziy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Ibn Foris Qazvinii, Sayyid Sharif Jurjoni, Ahmad Fayyumi, Muhammad A'lo Tahonaviy, Muhammad Murtazo Zabidiy hamda Abu Hafs Nasafiy⁴ o'z davrida islom moliyasi va fiqhul muomalotga oid terminlarni tadqiq etganlar.

XX asrda islomiy iqtisodiyot va moliya sohasi rivojlanishi bilan bir qatorda savdo-sotiq terminlarining struktur va semantik mohiyatini chuqur o'rganish kuchaydi. Bu borada Muhammadtaqiy Usmoniy, Sayyid Sobiq, Ali Qoradog'iy, Abdussattor Abu G'uddah, Monzer Kahf hamda Abdulkarim Zaydan⁵ kabi fiqhshunoslar iqtisodiy-huquqiy terminlarning amaliy mazmunini izohlab, ularni zamonaviy moliyaviy institutlarga moslashtirishga harakat qilganlar.

Tammam Hassan, Ibrohim Anis, Ahmad Muxtor Umar, Muhammad Kubaysiy, Ramzi Munir hamda Ahmad Faraj⁶ kabi olimlar arab tilidagi birliklar va terminlarning morfologik tuzilishi, leksografik jihatlarini tahlil etganlar. Arab terminologiyasining umumiy masalalarini tadqiq etishda Muhammad Hijoziy, Ali Qosimiy hamda Muhammad Ruuf⁷ning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiqdir.

³ Abū Ḥanīfa an-Nu'mān. al-Fiqh al-Akbar. – Qohira: Dār al-Salām, 2005. – 112 ş; Imām Muḥammad ibn Idrīs ash-Shāfi'ī. al-Umm. – Bayrūt: Dār al-Ma'rifa, 2001. – Vols. 7; Ibn Rushd al-Qurṭubī (Abū al-Walīd Muḥammad ibn Aḥmad). Bidāyat al-Mujtahid wa Nihāyat al-Muqtaṣid. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1995. Vols. 2; Ibn Qudāma al-Maqdisī. al-Mughnī. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1997. – 10 jild; 'Alā'uddīn Abū Bakr ibn Mas'ūd al-Kāsānī. Badā'i' as-Sanā'i' fi Tartīb ash-Sharā'i'. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1986. – Vols.7; Alī ibn Abū Bakr ibn 'Abd al-Jalīl Burhān al-Dīn al-Marghīnānī. *Al-Hidāya sharḥ Bidāyat al-Mubtadī*. Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, Bayrūt – Lubnān, 2010. 1: – 488 p; 2: – 632 ş; Ibn al-Humām, Kamāl al-Dīn Muḥammad ibn 'Abd al-Wāḥid. Fath al-Qadīr sharḥ al-Hidāya, ma'a Takmilat Fath al-Qadīr. Beirut: Maktabat al-Rashīdiyya, 2017. Vols. 1–10.

⁴ Abu Ḥatīm al-Rāziy, Al-Lafz wa at-tasnīyah fi al-kalimāt al-islāmīyah. Dār al-Kitāb al-'Arabī, 1957. – 710 p; o'*sha muallif*. Al-ziynah fī al-kalimāt al-'arabiyya va al-islāmīyya. San'ā: Markaz al-Dirāsāt wa al-Buḥūth al-Yamaniy, 1994. – 423 c; Al-Xorazmiy, Abū 'Abdallāh Muḥammad ibn Aḥmad. *Mafātīḥ al-'Ulūm*. Tadqiq va taqdim: 'Abd al-Amīr 'Ālim. Bayrūt: Dār al-Manāhil, 2008. – 318 ş; Aḥmad ibn Fāris ibn Zakariyyā. as-Şāhibī fī fiqh al-lugha wa-sunan al-'Arab fī kalāmihā. Tahqīq va sharḥ: Aḥmad Hasan Basaj. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1-nashr, 1997. – 238 ş; Al-Sayyid al-Sharīf al-Jurjānī, Al Ta'rīfāt (The Definitions), Dar Al-Kotob Al-Ilmiyah, Beirut, Lebanon, 1983. – 256; Abū al-'Abbās Aḥmad al-Fayyūmīy. al-Miṣbāḥ al-Munīr fī Gharīb ash-Sharḥ al-Kabīr. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1997. – 704 ş; Muḥammad 'Alī at-Tahānawī. *Mu'jam iṣṭilāḥāt al-funūn*. Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1996. Vols. 2; Murtazo az-Zabidiy. Tāj al-'Arūs min Jawāhir al-Qāmūs. Bayrūt: Dār maktabat al-ḥayāt, 1999. Vols. 1-10; An-Nasafī, Najm al-Dīn Abū Ḥafṣ 'Umar ibn Muḥammad. Ṭalabatu ṭ-ṭalaba fī al-iṣṭilāḥāt al-fiqhiyya. Tahqīq va taqdim: Shaykh Khālīd 'Abd al-Rahmān al-'Alawī. Bayrūt: Dār an-Nafā'is, 1985. – 441 ş.

⁵ Muḥammad Taqī 'Usmānī. An Introduction to Islamic Finance. – Karachi: Idāratul Ma'ārif, 1998. – 220 ş; Sayyid Sābiq. Fiqh as-Sunnah. – Qohira: Dār al-Fikr, 1996. – 3 j; 'Alī al-Qaradāghī. Al-'Uqūd al-Māliyya al-Murakkaba fī al-Fiqh al-Islāmī. – Doha: Ma'had al-Buḥūth al-Fiqhiyya, 2001. – 312 ş; 'Abd al-Sattār Abū Ghuddah. Dirāsāt fī al-Iqtisād al-Islāmī. – Jidda: Markaz al-Iqtisād al-Islāmī, 2002. – 278 ş; Monzer Kahf. The Islamic Economy: Analytical Study of the Functioning of the Islamic Economic System. – Plainfield: Muslim Students' Association of the U.S. and Canada, 1978. – 110 p; 'Abd al-Karīm Zaydān. al-Madkhal li Dirāsāt ash-Sharī'a al-Islāmīyya. – Bayrūt: Mu'assasat ar-Risāla, 1993; o'*sha muallif*. Nizām al-Qadā' fī ash-Sharī'a al-Islāmīyya. – Bayrūt: Mu'assasat ar-Risāla, 1997. – 352 ş;

⁶ Ḥassān, Tamām. Al-lugha al-'arabiyyah: ma'nāhā wa mabnāhā. – al-Qāhira: Dār al-thaqāfah, 1994. – 376 ş; Anīs, Ibrāhīm. Min Asrār lugha. – al-Qāhira: Maktabat al-injlū al-miṣriyyah, 1978. – 357 ş; Aḥmad Mukhtār 'Umar wa ghayruḥ. An-Naḥw al-asāsī. – al-Kuwayt: Dār al-salāsīl li al-ṭibā'ah wa al-nashr, 1994. – 657 ş; Muḥammad al-Kubaysī. al-Islāḥ al-Lughawī wa Taṭawwur at-Tasmiya al-'Ilmiyya. – Bag'dod: Dār al-Ḥurriyya, 1985. – 292 ş; Ramzī Munir Ba'labakī. al-Mawrid: Arabic-English Dictionary. – Bayrūt: Dār al-'Ilm lil-Malāyīn, 2005. – 1200 ş; 'Abd al-Ḥamīd al-Faraj. al-Lugha wa al-Ma'nā fī al-Fikr al-'Arabī al-Mu'āṣir. – Damashq: Dār al-Fikr, 2008. – 356 ş.

⁷ Ḥiğāzī M.F. al-Uṣus al-lugawiyya li-'ilm al-muṣṭalaḥ. – al-Qāhira, 1993. – 207 ş; Qāsimī 'Alī 'Ilm al-muṣṭalaḥ: Uṣūṣuhu al-naẓariyya wa-ṭatbīqātuḥu al-'ilmiyya. – Bayrūt, 2008. – 186 ş; Ra'ūf M.'A. Tārīḥ al-targama al-'arabiyya bayna al-Şarq al-'Arabī wa-al-Ġarb al-'Ūrubbī. – al-Qāhira, 2018. – 87 ş.

Muhammad Ravvos, Xolid Fahmiy⁸ kabi olimlar aynan islom huquqi kontekstida ishlatiladigan terminlarning genealogik, leksikografik jihatlarini o'rganishgan.

Arab tili leksikologiyasini tadqiq qilgan rus olimlari V. Belkin, A. Belova, B. Grande, N. Kovrshina⁹, shuningdek, Z. Alimjanova, T. Qodirov¹⁰ singari o'zbek olimlari asarlarida arab tilida so'z yasash haqida umumiy ma'lumot berib o'tilgan.

O'zbek olimlari, jumladan, A. Xayutin, S. Akobirov, R. Doniyorov, A. Xojiyev, A. Quronbekov, N. Qosimov, S. Nasirova, S. Mustafayeva, X. Mirzaxmedova, L. Sultonova, D. Adixanov, N. Umarova¹¹ va boshqalar turli sharq tillari terminshunosligining nazariy masalalarini o'rganishga salmoqli ulush qo'shdilar.

Turli davrlarda tilshunos olimlar turfa tadqiqot metodlari orqali savdo-sotiq terminlarini o'rganishgan, xususan, H. Dadaboyev XI-XIV asrlarga oid turkiy manbalarda qo'llangan savdo-sotiq terminlarining genetik tahlili hamda semantik-tematik guruhlarini ajratib o'rgangan¹². Savdo-sotiq bilan bevosita aloqador bank-moliya terminlarining izohli lug'ati e'lon qilingan¹³. Bir qator ilmiy ishlarning mavjudligiga qaramay, hozirgi lingvistik an'analar nuqtayi nazaridan qo'shimcha yoritishni talab qiladigan qator muammolar mavjud. Shular jumlasidan: islom moliyasi savdo-sotiq terminlarining struktur-semantikasi, yasash uslublari va chet tili elementlarining o'zlashuv xususiyati mazkur terminologik tizimda sodir bo'luvchi semantik-paradigmatik munosabatlar masalalari o'rin oladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq "Xorijiy sharq mamlakatlari tillarini o'rganish va tilshunoslikning nazariy masalalari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

⁸ Muhammad Ravvos Qal'aji. *al-Lug'a al-Inkliziyya wa-l-qabṭ al-'Arabī*. Tarjimon: Hamid Sādiq Qutaybī (ingliz tili), Qutb Mustafo Sāṭir (fransuz tili). Bayrūt: Dār al-Nafā'is, 1-nashr, 1996. – 644 s; Xālid Fahmiy. *Turāth al-ma'ājim al-fiqhiyya*. Al-Qāhirah: Dār al-maqaṣid. 2014. – 667 s.

⁹ Белкин В.М. Арабская лексикология. – М.: Московский университет, 1975. – 200 с; Белова А.Г. Введение в арабскую филологию. – М.: Институт востоковедения РАН, 2001. – 265 с. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. 2-е изд. – М.: Восточная литература, 2001. – 542 с; Ковыршина Н.Б., Самоделькина Л.В. Лексикология арабского языка. – М.: РУДН, 2008. – 56 с.

¹⁰ Алимджанова З.Н. Арабская лексикология. – Т.: ТГИВ, 2010. – 284 с; Қодиров Т.Ш., Алиев Д. Араб тили лексикологияси. – Т.: ТДШИ, 2013. – 319 б.

¹¹ Хаяутин А.Д. Термин, терминология, номенклатура. – Самарканд, СГУ. Алишер Навои, 1972. – 129 с; Doniyorov R. Terminlarni o'zlashtirish mezonlari haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1991, 6-sop. – B. 2125; Хожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Т.: Фан, 1996. – 46 б; Куранбеков А. Проблемы формирования научно-технической терминологии в современном персидском языке // Вопросы филологии. – М., 2003. – № 2/14. – С. 16-18; Nasirova S.A. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili: Filol.fan.nomz... diss.avtoref. – Т., 2008. – 69 с; Насирова С.А. Общественно-политическая терминология в современном китайском языке: Автореф. дисс...д-ра филол.наук. – Т.: ТГУВ, 2020. – 51 с; Mustafayeva S.T. Xitoy tilshunoslik terminologiyasi: Fil. fan. fals. doktori (PhD)... diss. avtoref. – Т., 2017; Mirzaxmedova X.V. Fors va o'zbek tillarida termin yasash prinsiplari va muammolari (ijtimoiy-siyosiy terminlar misolida): Filol.fanlari dok (DSc)... diss. avtoref. – Т., 2022. – 77 s; Sultonova L.A. Xitoy tilining tibbiyot terminologiyasi (jarrohlik terminlari misolida): Filol. fan. fals dok (PhD)... diss. avtoref. – Т., 2022. – 71 s. Адиханов Д.С. Формирование экономической терминологии в современном арабском языке. – Т.: Эффест-Д, 2022. – 160 с. Umarova N. I. Hozirgi arab tilida internet terminlarining shakllanishi. Filol. fan. fals. dok (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 48 b.

¹² Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Т: Фан, 1981. – 190 с.

¹³ Muxamedova S., Shirinova Y., Xudoyberdiyeva S. Bank-moliya terminlarining o'zbek tilidagi izohli lug'ati. – Т.: Kafolat print kompaniy, 2022. – 369 b.

Tadqiqotning maqsadi islom moliyasi savdo-sotiq terminlarini mustaqil funksional qatlam sifatida asoslab, struktur-derivativ va semantik-paradigmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

islom moliyasi savdo-sotiq terminlarining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari hamda uning ichki va tashqi lingvistik omillarini aniqlash;

islom moliyasi savdo-sotiq terminlarining struktur-derivativ xususiyatlarini ochib berish, ularning morfologik tuzilishi, qoliplari¹⁴ va termin hosil qilish mexanizmlari orqali boyish yo‘llarini belgilash;

islom moliyasi savdo-sotiq terminlarining polisemiya, monosemiya, sinonimiya, antonimiya, giper-giponimiya, graduonimiya kabi semantik-paradigmatik munosabatlarini tahlil qilish;

islom moliyasi savdo-sotiq terminlaridagi semantik taraqqiyot jarayonini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) standartlari hamda Quvayt fiqh ensiklopediyasi (al-mawsū‘ah al-fiqhiyyah al-kuwaytiyyah)da qo‘llanilgan islom moliyasiga oid savdo-sotiq terminlar olingan.

Tadqiqotning predmetini AAOIFI standartlari hamda Quvayt fiqh ensiklopediyasida voqelangan islom moliyasi savdo-sotiq terminlarining shakllanishi, taraqqiyoti, struktur-semantik, derivativ hamda paradigmatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsifiy, tarixiy-qiyyosiy, sistem-struktur, komponent, statistik va semantik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Islom moliyasi savdo-sotiq terminologiyasi rivojining to‘rt asosiy bosqichi – 1) Ilk islom davri (VII–VIII asr); 2) Mazhablar va mumtoz fiqh davri (VIII–XIII asr) 3) O‘rta asr va usmoniylar davri (XIII–XIX asr); 4) Hozirgi kodifikatsiya va globallashuv davri (XIX–XXI asr) kabi davrlari hamda terminlarining derivativ xususiyatlari va qoliplari, sintaktik kabi ichki omillar, o‘zlashma, kalka kabi tashqi omillar orqali shakllangani asoslangan;

Islom moliyasiga oid savdo-sotiq terminlarini hosil qilishda affiksial, sintaktik, semantik derivatsiya va kalkalashning o‘rni belgilangan, shuningdek, ishtiyoq-affiksial usulning yetakchiligi hamda arab tilining ichki imkoniyatlariga asoslangan termin yasash modellari mahsuldorligi miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida dalillangan, terminlarning bir, ikki va ko‘p komponentli struktur tiplari tasniflangan;

Islom moliyasiga oid savdo-sotiq terminlari o‘rtasidagi polisemiya, sinonimiya, antonimiya, giper-giponimiya va graduonimiya munosabatlarining namoyon bo‘lish xususiyatlari ochib berilgan, mazkur munosabatlarning terminologik tizimni tartibga

¹⁴ Morfologik so‘z yasalishi arab tilida ishtiyoq termini bilan yuritiladi, so‘z yasashdagi derivativ modellarga nisbatan ishlatiladi. O‘zbek arabshunosligida وزن *wazn* termini model, trafaret, vazn, qolip, siyg‘a, shakl kabi tarjima qilingan. Qarang: Maxmudova D. Arab tilida morfologik usulda so‘z yasalishi. Monografiya. T.: Donishmand ziyosi, 2023. – 120 b; Гранде, Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. 2-е изд. – М: Восточная литература, 2001. – С.101-116. Tadqiqot ishida O‘zbek tiliga mosligi e‘tibordan “qolip” shakli tanlandi.

solish, tushunchalar chegarasini belgilash hamda terminlarning o‘zaro ierarxik aloqalarini shakllantirishdagi funksional-semantik roli asoslangan;

Islom moliyasiga oid savdo-sotiq terminlarining tarixiy-semantik taraqqiyotida umumiste‘mol birliklarining terminlashuvi, klassik fiqhiy terminlarning qayta faollashuvi, ma‘no kengayishi va torayishi kabi semantik transformatsiya modellari ochib berilgan, faol va arxaik terminlarning shakllanishiga ta’sir etgan lingvistik hamda ekstralingvistik omillar dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

arab tili terminologiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish orqali arab tilidagi islom moliyasiga oid savdo-sotiq terminlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari belgilangan;

Islom moliyasi savdo-sotiq terminlari shakllanishining sermahsul usullari sifatida ishtiyoq, morfologik qoliplar, kalkalash ekani aniqlangan;

terminlarning komponent tahlili va ularning IOS standartlariga mutanosibligi, o‘zlashma va kalka terminlarning umum ulushi;

yangi tushunchalarni tilda ifodalashda eski so‘zlarga yangi semalarni yuklash misolida islom moliyasining savdo-sotiq terminologiyasi negizida tilning sofliigi va leksik boyishi isbotlangan;

765 birlikdan iborat arabcha-o‘zbekcha islom moliyasi savdo-sotiq terminlari lug‘ati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada foydalanilgan nazariy fikrlarning ishonchli manbalardan olinganligi, ilmiy mavzu mohiyatidan kelib chiqib tanlangan manbalarning tadqiqot predmetiga mosligi, muammoni to‘g‘ri qo‘yilgani, olingan ilmiy, amaliy natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati islom moliyasiga oid savdo-sotiq terminlarining struktur-semantik, derivatsion va paradigmatic xususiyatlari ochib berilgani, ularning semantik taraqqiyoti, semantik uyalar tizimi, sinonimik hamda boshqa paradigmatic munosabatlari nazariy jihatdan asoslangani, tilshunoslik, islom moliyasi va iqtisodiyot sohalari kesishmasidagi terminologik jarayonlarga doir ilmiy qarashlar boyitilgani hamda mazkur natijalardan soha terminologiyasini tizimlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan keyingi tadqiqotlarda nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati islom moliyasiga oid savdo-sotiq terminlarini tartibga solish va standartlashtirish, ularning izohli hamda ikki tilli lug‘atlarini yaratish, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash, oliy ta’lim muassasalarida “Leksikologiya”, “Terminologiya”, “Islom moliyasi” va “Huquqiy tilshunoslik” fanlarini o‘qitish, shuningdek, islom banki amaliyoti va xalqaro savdoga oid maxsus kurslarning mazmunini takomillashtirish hamda O‘zbekistonda shakllanayotgan islom moliyasi tizimining o‘zbek tilidagi terminologik bazasini rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlarini struktur-semantik tadqiq qilish quyidagilarga imkon berdi:

Islom moliyasiga oid savdo-sotiq terminlarini hosil qilishda affiks, sintaktik, semantik derivatsiya va kalkalash, shuningdek, ishtiqoq-affiks usulning yetakchiligi hamda arab tilining ichki imkoniyatlariga doir termin yasash modellari mahsuldorligi bilan bog'liq ilmiy xulosa hamda tavsiyalardan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan "Xolid Abdulazizning "Amaliy grammatika" darsligini tarjima qilish" nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2025-yil 11-sentyabrdagi 01-04-02/2218-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zlashma terminlarni izohlash, arabchalashtirish va tarjimada muqobillashtirishga oid materiallarning ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirilishiga hamda talabalarda arabcha terminlarni tarjima qilish ko'nikmalarining shakllantirilishiga erishilgan;

Islom moliyasiga oid arabcha savdo-sotiq terminlarining struktur-semantik xususiyatlari, o'zbek tiliga o'zlashish va kalkalanish usullari, ma'no kengayishi hamda torayishi asosidagi semantik taraqqiyoti, terminlarning o'zbekcha muqobillarini belgilash va ularni nutqda me'yoriy qo'llash tamoyillariga doir ilmiy xulosa va tavsiyalardan 2024-2025-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari" va "Hidoyat sari" eshittirishlari ssenariylarini tayyorlash hamda muallif ishtirokidagi suhbatlarni tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining

2025-yil 4-avgustdagi 05-09-1269-son ma'lumotnomasi). Natijada, eshittirishlarning islom moliyasi terminologiyasiga oid mazmuni ilmiy dalillar bilan boyitilgan, arabcha terminlarning mazmunini tinglovchilarga aniq va ilmiy-ommabop shaklda yetkazish hamda ularning o'zbekcha muqobillarini me'yoriy qo'llash imkoniyati yaratilgan;

Islom moliyasiga oid arabcha savdo-sotiq terminlarining struktur modellari, semantik uyalar bo'yicha tasnifi, polisemiya, sinonimiya, antonimiya va giper-giponimiya kabi paradigmatic munosabatlari, shuningdek, klassik fiqhiy terminlarning zamonaviy islom moliyasi tizimida ma'no kengayishi, torayishi va qayta faollashuviga doir ilmiy xulosa hamda tavsiyalardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida amalga oshirilayotgan ilmiy loyihalarda, xususan, arab tilidagi fiqhiy terminlarni tizimlashtirish, ularning ma'nolarini izohlash va o'zbekcha muqobillarini belgilash jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025-yil 12-sentabrdagi 02/429-son ma'lumotnomasi). Natijada, fiqhiy terminlarning ko'p qatlamli ma'nolarini kontekst asosida farqlash, o'zaro paradigmatic aloqalarini belgilash hamda savdo-sotiq terminlarini struktur va semantik jihatdan tizimli tavsiflash imkoniyati kengaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan 2 ta xorijda, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan PhD dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish


tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xalqaro jurnal va konferensiyalarida 4 ta maqola, Respublika konferensiyalarida 2 ta tezis nashr qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Ilmiy tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 153 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Islom moliyasi savdo-sotiq terminologiyasining shakllinishi va rivojlanish omillari”** deb nomlangan bobining 1.1 **“Arab tilida islom moliyasiga oid terminlarning shakllanishi”** faslida islom moliyasi savdo-sotiq terminologiyasining mumtoz davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan tarixiy evolyutsiyasi tahlil qilinib, ilk islom davri va fanning taraqqiy etish jarayonining to'rt asosiy bosqichi S. Sinoniy, Vahba Zuhayliy va H. Karaman¹⁵ kabi mutaxassislarning manbalariga tayanib shakllantirilgan¹⁶.



Chizma 1. Islom moliyasi savdo-sotiq terminologiyasi taraqqiyot davri

Sanab o'tilgan bosqichlarda terminlar tizimining manbalari, me'yorlash amaliyoti va usullari, hamda savdo-sotiqqa oid terminlarning leksografik dinamikasi ko'rsatib berilgan. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlarini tarixiy taraqqiyot bosqichlari (VII–XXI asrlar) asosida tasniflash ularning strukturaviy va semantik evolyutsiyasini, termin yasash mexanizmlarini, ma'no taraqqiyotini hamda zamonaviy kodifikatsiya jarayonlarini diaxron lingvistik nuqtai nazardan izchil tahlil qilish imkonini beradi. Muhammad (s.a.v.) ilk vahiygacha uzoq yillar savdo bilan

¹⁵ Transkripsiya haqida. Dissertatsiyadagi misollar asl yozuvi va arab tiliga oid tadqiqotlarda qo'llangan lotin alifbosidagi xalqaro transkripsiya asosida berildi.

¹⁶ وهبة الزحيلي، الفقه الإسلامي وأدلته. دار الفكر، دمشق – ١٩٨٩م. – ج. ١١.

Karaman, Hayreddin. İslam Hukuk Tarihi. – İstanbul: Ensar Neşriyat, 1989. – S.52-53. Köprülü, Fuat. İslam ve Türk Hukuk Tarihi Araştırmaları ve Vakıf Müessesesi / haz. Orhan F. Köprülü. – Ankara: Akçağ Yayınları, 2005. – S.22-23.

shug‘ullangan, obro‘li va halol tijoratchi sifatida tanilgan¹⁷. Savdo-sotiq terminologiyasining rivojlanishi va taraqqiyot bosqichlariga nazar solinsa, Payg‘ambarimiz (s.a.v) davrlariga borib taqaladi. Islom huquqi shakllangan davrlardan o‘q terminologiyaga katta ahamiyat berilgan va mazhablar shakllanish davrida huquqiy institutlarni yaratish ishlari boshlangan, ayrim hollarda terminlarga oid texnik ta’riflar ham keltirilganini ko‘rish mumkin. XI asrning oxirlariga kelib, mustaqil huquqiy terminologiya adabiyoti yozila boshlagan va shu asosda savdo-sotiq terminlari ham o‘rganilgan. VII-VIII asrlardayoq savdo-sotiq fiqhi alohida huquqiy institut shaklida ajratib ko‘rsatilgan¹⁸.

Turli davrlarda tilshunos olimlar turli tadqiq metodlari orqali savdo-sotiq terminlarini o‘rganishgan, xususan, H.Dadaboyev turkiy manbalardagi savdo-sotiq terminlarini tadqiq etgan. Izlanishda H.Dadaboyev savdo-sotiq terminlarining genetik tahlili hamda semantik-tematik guruhlarini ajratib ko‘rsatgan¹⁹.

Ilk islom davri (VII-VIII asr – Qur’oni karim va hadisi sharif davri): Bu bosqichda islomiy savdo-sotiqning huquqiy tushunchalari asosan Qur’oni karim oyatlari va Payg‘ambarimiz (s.a.v) hadislarini asosida yuzaga chiqqan va johiliya davri terminlari bilan birgalikda shakllangan edi. Qur’on, avvalo, joriy qilmoqchi bo‘lgan yangi tuzimga zid kelgan tushunchalarga oid so‘zlarni unutish yo‘lini tutgan²⁰. Buning o‘rniga, o‘zi joriy qilayotgan yangi tushunchalarni ifoda qilishda eng mos bo‘lgani tanlangan. Pul bilan bog‘liq ثمن *thaman* – narx, سعر *si‘r* – narx, دينار *dīnār* – dinor (pul turi); كَيْل *kayl* – o‘lchov; وزن *wazn* – og‘irlik, مِثْقَال *misqāl* – misqol, og‘irlik o‘lchov birligi; قَرْض *qard* – qarz; اَسْلَف *aslafa* – avans berish, oldindan to‘lash; رَهْن *rahn* – garov; تِجَارَة *tijārah* – savdo (qildi); رِبْح *ribḥ* – foyda; تَجَر *tajara* – savdo qildi; بَيْع *bay‘* – savdo, sotish; أَجْر *ajr* – haq, ish haqi; وَفَى *wafā* – ado etish, bajarish kabi terminlar berilgan²¹. Hadisi sharif Qur’oni karimni sharhlash (bayon) vazifasiga ega bo‘lgani va amaliy hayotning deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘is, islomiy moliya terminologiyasiga yanada ko‘proq birliklarni kiritgan. Ali Sulaymon dissertatsiyasida hadislarda qayd etilgan tijorat bilan bog‘liq 679 ta istilohni keltirib o‘tadi. Ishda ko‘rsatib o‘tilgan birliklar islom savdo-sotiq terminologiyasining boyishiga xizmat qilgan²². Biroq ularning hammasi ham termin emas yoki savdo-sotiq ma’nosida to‘liq ishlatilmagan yoki ayrim savdoga bog‘liq bo‘lmagan so‘zlar metaforik yo‘sinda teologik munosabatlar va savdoga aloqadar shaklda ishlatilgan.

Mazhablar va mumtoz fiqh davri (VIII-XIII asr). Bu davrda fiqhiy maktablar –

¹⁷ Nicholas H. D. Foster. Islamic Commercial Law: An Overview // – Barcelona: School of Law and School of Oriental and African Studies, University of London, October 2006. – P. 6.

¹⁸ محمد بن الحسن الشَّيْبَانِي. كتاب الكسب. – حلب: بيروت: دار الكتب العلمية. ١٩٩٧م. – ص. ١٢.

Ismail Abubakar, Tatiana Danisova & Suleiman Mohammed Hussein Boayo // “Earning a Living and Its Position in the Sacred Law: An Exposition of Shaybani’s Doctrine.” Islam and Civilisational Renewal, Vol. 8, No. 4 (n.d.). – Halba: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya (pdf), 1997. – P. 14.

¹⁹ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв. – Ташкент: Фан, 1981. – С. 83.

²⁰ Osman Şahin. İslami hukuk terminolojisinin oluşumu ve ilgili literatür // İslam hukuku araştırmaları dergisi. – №13. – 2009. – S. 141.

²¹ محمد الخضرى بيك. تاريخ التشريع الإسلامى. – القاهرة: المكتبة التجارية الكبرى. ١٩٦٠. – ص. ٣٩٧. سعيد الأفغانى. أسواق العرب في الجاهلية والإسلام. – القاهرة: دار الفكر العربى، ١٩٦٤. – ص. ٤٧-٦٢.

²² الشَّيْبَانِي، علي بن جابر بن سليمان. ألفاظ المال والتجارة في الحديث الشريف (دراسة لغوية). (رسالة دكتوراه، جامعة أم القرى، مكة المكرمة، 1425هـ. – ٢ ج. – ص. ٧٤٩.

hanafiy, molikiy, shofe'iy va hanbaliy kabi mazhablar shakllandi. Har bir mazhab huquqiy masalalarni hal etishda o'z metodologiyasini ishlab chiqdi, natijada, terminlarning tizimlashuvi yuzaga keldi. **O'rta asr va usmoniylik davri (XIII-XIX asr).** Ushbu davrda fiqhiy adabiyotlar keng rivoj topdi. Lug'aviy, mantiqiy va usuliy tahlillar kuchaytirilib, huquqiy terminlar ko'proq sharhlash va ta'riflash orqali boyitildi. Fiqhiy ensiklopediyalar, muqaddimalar va tarjimalar yordamida islomiy moliya sohasining terminologik bazasi mustahkamlandi. **Hozirgi kodifikatsiya va globalashuv davri (XIX-XXI asr)** – sanoat inqilobidan so'ng boshlangan tezkor rivojlanishlar boshqa dunyo mamlakatlari bilan birga musulmon mamlakatlariga ham ta'sir ko'rsatdi va bu ta'sir hozirgi kunda texnologiya va tibbiyot kabi fanlarda sodir bo'layotgan yutuqlar bilan yanada ortib bormoqda. Ushbu vaziyatlar taqazosi bilan Qohira arab tili akademiyasi *معجم لغة الفقهاء* *mu'jam lughah al-fuqahā*, *المعجم الوسيط* *mu'jam al-fāz al-qur'ān al-karīm* kabi lug'at va qomuslarni tuzdi. Savdo-sotiq terminologiyasining umumiy manbasini ilk davridan hozirga qadar to'rt asosiy manbaga ajratish mumkin. Qur'oni karim, hadisi sharif, mazhablar hamda chet tillari. Ular fors, lotin, ivrit, orom va yunon tili bo'lib, ilk va mazhablar shakllanish davrida savdo-sotiq terminlariga pul va o'lchov bilan bog'liq so'zlar kirib kelgan²³. Masalan, *نُبَاهِرَج* *nubahraj* – bahosi past, qadsiz tanga yoki yomon sifatli mol; *سَتْوَق* *sattūq* – bozor rastasi, omborxona yoki savdo joyi; *دِرْهَم* *dirham* – pul birligi; *جَزَاف* *juzāf* – chamalab sotish; *بَاهِرَج* *bahraj* – bahosi past, qadsiz tanga yoki yomon sifatli mol; *دِينَار* *dīnār* – pul birligi terminlari.

O'sha davrga oid o'zlashmalar tarkibida oromiy, ibroniy tildan o'zlashgan terminlar bo'lsa-da, aksar qismi (12 tadan 8 tasi fors tiliga, 2 ta yunoncha va 1 tasi lotin tiliga, yana biri oromiyga oid²⁴) fors tilidan o'zlashgan²⁵. O'rta asrlarda ayrim taxminlarga ko'ra turkiy til usmonli turkchasidan ham *الجمرك=الجمرك* *al-jumruj=al-kumruk* – bojxona, boj so'zi ham arab tiliga o'zlashgan²⁶. Hozirgi kunda arab tili savdo-sotiq terminologiyasi qator chet, asosan g'arb-yevropa – fransuz, ingliz, italyan tillari ta'sirida o'zlashmalar kirib kelmoqda. M.T Usmoniyning “Savdo fiqhi” asaridagi savdo-sotiq terminlari tahliliga ko'ra hozirgacha ingliz, fransuz va italyan tillaridan to'g'ridan-to'g'ri 16 ta, kalka orqali o'zlashgan 94 ta termin aniqlandi.

Mazkur bobning 1.2 “Soha terminlari tizimi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan omillar tavsifi” faslida mumtoz va yangi davrda qo'llanilayotgan so'z-termin yasash prinsiplari, metodlari hamda ular orqali yasalayotgan sarfiy qoliqlarning vazifaviy xususiyatlari, shuningdek, savdo-sotiq terminologiyasining ichki struktur, sintaktik takomillashuv omillari, tashqi o'zlashmalar bilan takomillashuvi o'rganilgan. Qohira, Damashq, Bag'dod va boshqa arab tili akademiyalarining yagona terminologik

²³انسفي عمر بن محمد، طلبة الطلبة، تحقيق: الشيخ خالد عبد الرحمن، بيروت – دار النفائس، الطبعة الأولى – ١٩٩٥م. ص: ٢٣٧.

²⁴النهائية في غريب الحديث، القاموس المحيط، (ردب)، المعجم الاقتصادي الإسلامي، المجمع العربي في القاهرة – مصر. ٢٠١٤. ص: (٢٤) - ص: ٥٨٤.

²⁵الشائع، علي بن جاسر بن سليمان. ألفاظ المال والتجارة في الحديث الشريف: دراسة لغوية: رسالة دكتوراه. – مكة المكرمة: جامعة أم القرى، كلية اللغة. ٢٠٠٠ م. – ص: ٣٩١.

²⁶ Ushbu so'z fors yoki turkiy tilidan o'zlashgani borasida aniq bir xulosa yo'q: ayrimlar turk tilidan desa, ayrimlar fors tilidan o'zlashgan deydi. So'zning o'zlashish davriga qarasak, usmonli davlati davrida bo'lgan. Taxmin qilish mumkinki, bu so'z asli fors bo'lsa ham, birinchi turk tiliga keyin usmonli ta'sirida arab tiliga o'zlashgan bo'lishi mumkin. Qarang:

طوبيا العنيسي الحلبي اللباني (1932)، كتاب تفسير الألفاظ الدخيلة في العربية مع ذكر أصلها بحروفه. مصر – مكتبة العرب. ١٩٣٢م. ط٢. – ص: ٩٤. (مراجعة يوسف البستاني) ط. 2، القاهرة: مكتبة العرب، ص: 64.

me'yorlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdagi o'rni, ularning qo'llagan arxaizmlarni qayta tiklash (توليد *tavlīd*), so'z yasalishi (اشتقاق *ishtiqaq*), kalkalash va ta'rib (تعريب *ta'rib*) (arablashtirish/transliteratsiya) kabi usullari ham batafsil ko'rib chiqilgan. Akademiyalar faoliyatidagi tarqoqlik, ba'zan kuzatiladigan konservatizm, me'yorlar nomuvofiqligi tufayli yagona terminlar tizimini shakllantirishda uchrayotgan muammolar muhokama qilinib, hozirgi arab terminologiyasini birlashtirish va rivojlantirishda sohaviy hamkorlik, raqamli tashabbuslar muhimligi ta'kidlanadi. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlarida إفعال *if'āl*, مفاعلة *mufa'ālah*, تفعل *tafa'ul*, استفعال *istif'āl*, تفاعل *tafā'ul* kabi aktiv vaznlarning leksik, semantik vazifalari ochiqdanib, shu davrgacha foydalanilmay kelgan تفعل *tafa'ul* va تفاعل *tafā'ul* boblarining متفاعل *mutafā'il*, متفاعل *mutafā'il* vaznlarida sifat va sifatdosh yasash samarali ekani asoslab berilgan.

Zamonaviy davrda Misr va Turkiya mintaqasida rivojlanib kelgan Usmonli imperiya savdo-sotiq huquqi bilan bog'liq qonunchilik manbalari ahamiyatga egadir. 1798-yilda Napoleon Bonapart Misrni bosib olgach, u Misrdagi huquqiy tizimga katta o'zgarishlar kiritdi. Napoleon Fransiya tamoyillarini joriy etib, tijorat masalalarini boshqa qonunlardan ajratib ko'rib chiqishga asos solgan edi. Xususan, u tijorat nizolarini hal qilish uchun alohida maxsus savdo sudlarini tashkil etdi. Bu yangilik Misrda keyingi yillardagi yangi kodifikatsiya va sud tizimining G'arb huquqiga moslashiga turtki berdi. Shu yo'l bilan, 19-asr davomida Misrda aralash sudlar Fransuz huquqiy an'analari asosida qarorlar chiqariladigan bo'ldi. Napoleonning hukmi shuningdek, yaqin yillarda butun Usmonli imperiyasida ham Fransiya kodekslarini joriy etishga sabab bo'ldi²⁷. Usmonli imperiyasida 1850-yildagi Tijorat kodeksining qabul qilinishi va sekulyarizatsiya jarayoni ham shu bilan bog'liq edi, XIX asrning o'rtalarida Usmonli imperiyasida ham qonunchilikni modernizatsiya qilishga kirishildi. 1850-yilda imzo chekkan tijorat kodeksi to'g'ridan-to'g'ri 1807-yilgi Fransiya Tijorat kodeksi asosida tuzilgan edi²⁸. Shu kabi omillar islomiy moliyaning huquqiy-iqtisodiy tizimini shakllantirdi. Bu o'z navbatida sohaning terminologiyasida qator neologizmlarni keltirib chiqardi.

XX asr boshida Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika musulmon davlatlari G'arb qonunchiligini qabul qilishga majbur bo'ldi. Bunga sabab iqtisodiy modernizatsiya va xorijiy kapitalni jalb etish ehtiyoji bo'lib, savdo maydonlarini kengaytirish uchun G'arbiy huquq tizimiga moslashildi. Misrda fransuz qonunchiligiga asoslangan kodekslar joriy etildi va 1949-yilda Sanhuriy tomonidan tayyorlangan Fuqarolik kodeksi qabul qilindi. Bu kodeks shariatni faqat ikkinchi darajali manba sifatida ko'rib, asosan tijorat va mulkiy huquqni tartibga solishga qaratilgan edi. Shunga o'xshash kodekslar Iroq, Liviya va Quvaytda ham tatbiq etildi²⁹. Shuningdek, bu davrda "yuridik shaxs" tushunchasi arab dunyosida yangi bo'lib, unga turli nomlar

²⁷ Miyase Yavuz Altıntaş. Evolutionary Secularisation of the Ottoman Law in the Nineteenth Century: Roots and Implications // Eskiye. – 2021. – № 44 (Eylül/September). – B. 385-408.

²⁸ Miyase Yavuz Altıntaş. Evolutionary Secularisation of the Ottoman Law in the Nineteenth Century: Roots and Implications // Eskiye. – 2021. – № 44 (Eylül/September). – B. 385-408.

²⁹ Zare M. Creating Laws for Economic Growth in a Hybrid Islamic Legal System // Southern California Interdisciplinary Law Journal. – 2019. – T. 28, № 2. URL: <https://gould.usc.edu/why/students/orgs/ilj/assets/docs/28-2-Zare.pdf> – C. 395–422. Mayer A. Law. Modern Legal Reform // Esposito J. L. (ed.). The Oxford Encyclopedia of the Islamic World. – Oxford: Oxford University Press, 2009. URL: <https://web.archive.org/web/20081121033722/http://www.oxfordislamicstudies.com/article/opr/t236/e0473#e0473-s5>

berildi: الشخصية المعنوية, الشخصية الاعتبارية va boshqalar. Islomiy moliya tarixiy ildizlarga ega bo'lsa-da, zamonaviy bank terminlari G'arbdan olingan. Abdurrazzoq Sanhuriy shariat merosini zamonaviy G'arbiy huquq bilan uyg'unlashtirish tarafdori bo'lib, fiqhni maqosid (maqsadlar) asosida talqin qilishni taklif etgan. U shariatni asosan axloqiy-oilaviy sohalarida saqlab, tijorat sohalarida G'arbiy tamoyillarni qo'lladi. Bu esa savdo-sotiq terminologiyasida shariat va G'arb huquqiy tizimi o'rtasidagi semantik qorishishni yuzaga keltirdi³⁰.

Islom moliyasi savdo-sotiq terminologiyasi takomillashuvida yangi tushunchalarni ifodalash uchun terminlar quyidagi usullar orqali hosil qilinadi: A) Ishtiyoq (derivatsiya) – arab tilidagi ildizlardan yangi huquqiy termin yasash. Masalan: مضاربة *muḍārabah* – sarmoya sherikchiligi, مرابحة *murābahah* – foyda asosidagi savdo. B) Sintaktik birikmalar – izofa, moslashgan aniqlovchi, predloqli birikma hamda nisbiy sifat yasovchi qo'shimchalar orqali terminlar yasaladi. D) Semantik ko'chish (مجاز *majāz*) – mavjud so'zga yangi huquqiy ma'no yuklash. Masalan: عقد (aslida “bog'lash”) savdo huquqida “shartnoma”, صاحب اليد *ṣāhib al-yad* – qo'l egasi so'zi mulk egasi, ega degan ma'noda; اليد *al-yad* – qo'l so'zi mulk, egalik ma'nosida; أسبقية اليد *asbaqiyyah al-yad* – qo'li birinchilik so'zi tovar, mulkka birinchi egalik qilish ma'nosida terminlashgan. E) Arablashtirish (تعريب *ta'rib*) – xalqaro terminlarni arab tiliga fonetik va morfologik moslashtirish. Masalan: كمبيالة *kambiyāla* – veksel. سمسار *simsār* – dallol, o'rtakash; درهم *dirham* – dirham, mis pul; سفتجة *saftajah* – qarz xati (xatardan qutulish uchun berilgan qarz) kabi terminlar. F) Kalkalash (ترجمة *tarjamah*) – xorijiy terminlarni so'zma-so'z yoki ma'nodosh tarzda tarjima qilish. Masalan: بطاقة الائتمان (*biṭāqat al-i'timān* – kredit karta), بطاقة (debit karta). G) Kompozitsiya – ikki yoki undan ortiq so'z birikmasi asosida yangi termin hosil qilish. Masalan: إجارة منتهية بالتمليك *ijārah muntahiyah bi-t-tamlīk* – mulkka o'tuvchi ijara shartnomasi. سندات ذات الجوائز *sanadāt* – yutuqli obligatsiyalar kabi terminlar. Terminlarining komponent tahlili shuni ko'rsatadiki, bu qatlam terminlarda o'zbektilidagi “avtosozlik” kabi yarim o'zlashma, yarim o'zso'z kabi kompozitsiya usuli uchramaydi.

Islom moliyasi savdo-sotiq terminologiyasi ham mumtoz fiqhiy an'analar, ham zamonaviy iqtisodiy talablar asosida rivojlanib, globallashtirish jarayonida xalqaro terminologiya bilan uzviy bog'lanmoqda. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlari umumiste'mol so'zlardan terminlashish, boshqa sohalar (jumladan, ilk davrdagi iqtisodiy amaliyot va urf-odatlar)dan determinlashish, yoki mavjud huquqiy leksemalarni yangi ma'no yukida qayta belgilash (transterminlashish) orqali yuzaga kelgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Islom moliyasi savdo-sotiq terminlarining struktur-derivativ tahlili”** sohaning terminologik boyishida derivatsiyaning samaradorligi hamda undagi faol qoliqlar, ularning vazifaviy, morfemik, derivativ va semantik tahliliga bag'ishlangan. Ichki til taraqqiyoti va raqamli muhitning zamonaviy voqeliklariga moslashishi sifatida arab tilida yangi terminlarini yaratishda qo'llaniladigan o'zak (ildiz) tizimi, so'z yasaliş tuzilmasining moslashuvchanligi va

³⁰ Faisal Niyaz Hudawi. Banking and Financial Transactions in the Early Islamic Era. – 7-aprel, 2024. – URL: <https://en.islamonweb.net/banking-and-financial-transactions-in-the-early-islamic-era#>

keng affiksatsiya imkoniyatlari tufayli arab tili termin yasalishi sohasida yuqori mahsuldorlikka ega.

Ikkinchi bobning 2.1 “Affiksatsiya usulida shakllangan terminlarning **derivativ tahlili**” faslida o‘zak (ildiz) morfologiyasi, hosila affiks shakllarning leksik-struktur mexanizmlari tahlil qilinadi. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlari hosil bo‘lishidagi eng samarali affiks usullari orasida quyidagilar ustunlik qiladi:

فعل *fa‘il* aniq nisbatdagi sifatdosh qolipi. Masalan, شريك *sharīk* – shirkat asosida tuzilgan bitimdagi sheri ma’nosini bildiradi, وكيل *wakīl* – vakil, ishonchli shaxs.

فعل *fa‘ul*. Masalan, قبول *qabūl* – har qanday shartnomani qabul qilish ma’nosida ishlatiladi, arab tilida bu masdar shakli bo‘lib, rad etilmagan ijobiy munosabatni bildiradi. Bu qolip mavjud fe‘l ildizlariga morfologik affikslar vositasida shakl berib, abstrakt yoki kasbiy ma’nolarni ifodalaydi.

Bitim taraflari va savdo-sotiq jarayonidagi shaxslar va ularning majburiyatini ifodalaydigan terminlar quyidagi qoliplarda hosil qilinadi:

فاعل *fā‘il*. Aniq nisbatdagi sifatdosh qolipi. Bu eng keng tarqalgan ma’lum nisbatda sifat-sifatdosh yasovchi qolip bo‘lib, faol shaxs yoki subyektni bildiradi. Affiks ل *-ā‘i-* orqali so‘zga agentivlik (amal bajaruvchilik) ma’nosi yuklanadi. Masalan, ضامن *dāmin* – javobgar termini ضمن *damana* o‘zagidan shu qolipda olingan. رهن *rāhin* – garov qo‘yuvchi ham shu qolip orqali hosil qilingan.

مفعول *maf‘uul*. Majhul nisbatdagi sifatdosh qolipi. Bu majhul nisbatdagi sifat-sifatdosh yasaydigan qolip bo‘lib, مضمون *madmūn* – kafolatlangan, degan ma’nodagi tijorat termini shu qolipda olingan. Bu shaklda fe‘l ildiziga *ma--ū-* affikslari qo‘shilib, passiv semantik holat yaratiladi³¹.

مفعّل *muf‘il*. Bu qolip أفعل *af‘ala* bobining ma’lum nisbatdagi sifatdosh vazni bo‘lib, ma’lum nisbat va o‘timli shaklda so‘z yasashda ishlatiladi. Masalan, محيل *muhīl* termini ham shu bobning أحال *aḥāla* noto‘g‘ri fe‘lidan مفعّل *muf‘il* qolipida olingan. “... إذا طالب المحيل المحتال بما أحاله به” (agar havola qiluvchi havolani qabul qilgan tarafni havolada belgilangan ishni bajarishini talab qilib ...) ³².

مفعّل *muf‘al*. Bu qolip أفعل bobining majhul nisbatdagi sifatdosh vazni bo‘lib, majhul nisbat shaklda so‘z yasashda ishlatiladi. Masalan, مُشَاع *mushā‘un* – bo‘linmagan, ulushli mulk termini shu bobning أشاع *ashā‘a* noto‘g‘ri fe‘lidan olingan.

مفعّل *mufā‘il*. Bu qolip فاعل bobidan ma’lum nisbatda sifat va sifatdosh yasash uchun ishlatiladi. Masalan, مُضَارِبٌ *muḍārib* – muzoraba shartnomasida molni ishlatuvchi shaxs termini ham mazkur qolipda olingan.

Shartnoma va uning xususiyati huquqiy majburiyatini ifoda qiladigan terminlar, asosan, mana shu hosila qoliplarda yasaladi:

تفعيل *taf‘il*. Bu bob harakatni takrorlash, intensivlik, o‘timlilik, tavsiflash, otidan fe‘l yasashga ham ishlatiladi. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlarini yasashda ham faol qo‘llaniladi. Masalan, وَكَّلَ \ تَوَكَّلَ *wakkala / tawkīl* – vakolat berish; تسليم *taslīm* – topshirish, yetkazib berish; تأخير *ta‘khīr* – kechiktirish, orqaga surish; تقديم *taqdīm* – oldinga surish, ustun qo‘yish; تبعية *tab‘īd* – bo‘lib tashlash, qisman ajratish.

³¹الميداني. نزهة الطرف في علم الصرف. – مطبعة الجوائب، قسطنطينية، 1298 هـ. – ص. 17.
³² المرغلاني، كتاب الهداية شرح بداية المبتدي، المكتبة الشاملة، ج 3، ص 100.

مفاعلة *muf'alah*. Bu qolip فاعل *fa'ala* bobining ish-harakat nomini bildiradigan vazni bo'lib, biror ish harakatining ikki va undan oshiq kishilar o'rtasida hamkorlik-birgalikda bajarganini ifodalaydi. Masalan, مبادلة *mubādalah* so'zi mana shu qolipda بدل *badala* o'zagidan olingan. Savdo-sotiq terminlarini yaratishda faol qoliplardan bo'lib, shirkat, ikkilamchi savdoga oid terminlar mana shu qolipda yasalgan.

إفعال *if'al*. Bu qolip أفعل *af'ala* bobining harakat nomi qolipi bo'lib, biror ishni qildirish, o'timlilik ma'nolarida ishlatilad. Masalan, إيجار *ījār* – ijaraga berish termini mana shu qolipda yasalgan. Savdo-tijorat huquqidagi aktiv terminlardan biri إقراض *iqrād* – qarz berish termini ham mazkur qolipda yasalgan.

تفاعل *tafā'ul*. Bu qolip o'zaro amal yoki ikki tomonlama harakatni bildiradi³³. Masalan, تبادل *tabādul* – o'zaro almashish termini ham mazkur vaznda بدل ildizidan olingan. تفاعل *tafā'ul* qolipi fe'l ildiziga ت *ta-* va ل *-ā-* elementlarini qo'shib, ijtimoiylik yoki ikki tomonlama faoliyat ma'nosini beradi³⁴. Qohira arab tili akademiyasi mazkur qolip ilmiy va texnologik yangi terminlarni yaratishda keng amaliy ahamiyatga ega ekanini aytib: “تفاعل *tafā'ul* qolipi sheriklik, tenglik yoki o'xshashlik ma'nosini ifodalaydi va shu ifodani talab qiladigan ilmiy terminlarning ma'nosini yetkazishda xizmat qiladi” deya qaror qilgan³⁵.

تفعل *tafa'ul*. Ushbu qolip ichki refleksiv yoki intensiv holatni bildiradi. Masalan, تصرف *taşarruf* – tasarruf qilish, harqanday moliyaviy amaliyotni bajarish (mol-mulk bilan faoliyat oldi-sotdi, garovga qo'yish, qarzga berish kabi keng qatlamli ma'noga ega) termini mazkur qolipda yasalgan. تفعل *tafa'ul* Umumiy arab terminshunosligida termin yasashdagi aktiv qolip bo'lib, aksar fiqh savdo-tijorat terminlari shu qolipda yasalgan. Misol uchun, تورق *tawarruq*, تصرف *taşarruf*, تضمن *taḍammun*, تمول *tamawwul*, تقوم *taqawwum*, تسلم *tasallum*, تضخم *taḍakhkhum*, تفرق *tafarruq* kabi terminlar shu qolipda yasalgan.

Termin yasashining morfologik usuli, hosila fe'l shakllariga asoslangan – aniq va majhul nisbatdagi sifat-doshlar, harakat nomlari (masdar), mavhumlikni bildiruvchi suffiksli qoliplar sermahsul (tahlil qilingan materialning taxminan 41%ni tashkil qilgan) usul hisoblanadi.

Ikkinchi bobning 2.2 “**Sintaktik qoliplar orqali hosil qilingan terminlar struktur xususiyati**” deb nomlangan ikkinchi faslida terminlarning sintaktik qurilishi va ularning vazifaviy xususiyatlari o'rganilgan. Murakkab huquqiy-iqtisodiy savdo-sotiqqa oid tushunchalarni sintaktik birikmalar bilan ifodalash samarali va sermahsuldir. Islomiy moliya savdo-sotiq terminlari ko'pincha ikki yoki undan ortiq so'z birikmasi asosida shakllanib, o'zida mazmuniy aniqlik va huquqiy tafsilotni mujassam etadi. Terminlarning sintaktik qurilishini quyidagi asosiy qismlarga ajratish mumkin: 1) Qaratqich kelishikli birikma. Masalan, إسقاط الأجل *isqāt al-ajal* – muddatni bekor qilish³⁶; 2) Moslashgan aniqlovchili birikma. Masalan, بيع فاسد *bay' fāsīd* – fosid-to'g'ri shakllantirilmagan savdo; 3) Qaratqich kelishikli va moslashgan

³³ حسان، تمام. اللغة العربية معناها ومبناها. – القاهرة: الهيئة المصرية العامة للكتاب، ١٩٨٥. ص. ٨٢.


³⁴ المرغلاني، كتاب الهداية شرح بداية المبتدي، المكتبة الشاملة، ج ١. ص. ٢٦٦.

³⁵ مجمع اللغة العربية مجموعة المصطلحات العلمية والفنية. القاهرة: مجمع اللغة العربية ١٩٦٣. ص ٣٠.

³⁶ المرغلاني، كتاب الهداية شرح بداية المبتدي، المكتبة الشاملة، ج ٣، ص ٥٠.

<https://shamela.ws/book/11820/683>

aniqllovchili birikma; 4) Sodda qo'shma so'zli birikma. Masalan, رأسمال *ra'sumāl* – sarmoya.



Sintaktik qoliplar orqali hosil qilingan savdo-sotiq terminlarini quyidagi sakkizta shaklda taqsimlash mumkin:

Ot+ot (izofiy birikma). Misol: bayع ال تقسيط *bay' al-taqsiṭ* – bo'lib to'lash orqali savdo.

Ot+sifat. Misol: ribه مضمون ربح *ribh maḍmūn* – kafolatlangan foyda.

Ot+nisbiy sifat. Misol: hisاب استثماری حساب *hisāb istithmārīy* – investitsiyaviy hisob.

Ot+predlog+ot. Misol: الحق بالشفعة *al-ḥaqq bi-al-shuf'ah* – shuf'a haqqi³⁷.

Ot+sifat+predlog+ot. Misol: ال تمليك المذتهية الإجارة *al-ijāratu al-muntahiyah bi-at-tamlīk* – mulkka aylanuvchi ijara.

Ot+predlog+ot+nisbiy sifat. Misol: التعويض عن الضرر الفعلي *al-ta'wīḍ 'an al-ḍarar al-fi'līy* – haqiqiy zararni qoplash termini mana shu yo'sinda yasalgan.

Ot+izofa +izofa (zanjir izofa). Misol: ضمان خطر الطريق *ḍamān khaṭar at-tarīq* – yo'l xatarini zimmaga olish.

Ot+izofa+nisbiy sifat. Misol: عقد التأمين التجاري *'aqdu at-ta'mīn at-tijārī* – tijoriy sug'urtalangan bitim.

Ko'rsatib o'tilganidek islom moliyasi savdo-sotiq terminlarining sintaktik qurilishi asosiy sakkizta shaklda yasaladi.

Ikkinchi bobning 2.3 **“Kalkalash orqali yuzaga kelgan terminlarning semantik va struktur tahlili”** faslida islom moliyasi savdo-sotiq sohasidagi neologizmlarni kalka uslubida o'zlashtirishning leksikografik tamoyillari, o'zlashma terminlarni tilga qabul qilishdagi kalkaning vazifaviy xususiyatlari bayon qilingan. Arab tilida mavjud bo'lmagan islom moliyasi savdo-sotiq sohasiga oid qator terminlar kalka orqali qabul qilingan. Masalan, تكافل *takāful* – o'zaro kafillik, o'zaro sug'urta, بيع الأجل *bay' al-'ajal* – (deferred sale) to'lov kechiktirilgan savdo kabi ingliz va yevropa tillaridagi terminlarni tarjima qilishda ishlatilgan. Kalka qadimiy arab tilidagi so'zlarda kam bo'lsa-da, ko'zga tashlanadi. Biroq hozirgi globallashuv va texnik taraqqiyot davrida kalkaga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

³⁷ Hamkor yoki ko'chmas mulk egalaring ustuvor huquqi.

Shuningdek, arab tili miqyosida ham chet tili soʻzlari, tushunchalarini oʻzlashtirishdagi eng “zararsiz” uslub kalka ekani ochiqlandi. Shuningdek kalkaning soʻzma-soʻzma shakli (masalan, inglizcha “Commercial insurance contract” termini → عقد التأمين التجاري *‘aqd al-ta’min al-tijārī* deb; “Joint-stock company” → الشركة *al-sharikah al-musāhamah* – ulush asosidagi sheriklik, “Deferred sale” → بيع الأجل *bay’ al-ājil* – nasiya savdo deya soʻzma-soʻz tarjima qilingan), *semantik shakli* (masalan, inglizcha “bonds” soʻzi arabchaga سندات *sanadāt* – tarzida kalka qilingan. Bu asli سند *sanad* – hujjat, dalil koʻrinishidagi birlik soʻz boʻlib, unga ات *āt* koʻplik yasovchi perfiks qoʻshilib سندات *sanadāt* “qimmatli qogʻozlar” maʼnosida qabul qilingan; “Bankruptcy” إفلاس *iflās* – “mablagʻsizlik, inqiroz”, “Partnership” شركة *sharikah* – shirkat, sheriklikda biznes qurish kabi terminlar ham kalka orqali oʻzlashtirilgan. *Affixsal qoliplar yordamida kalkalangan shakllari* (Masalan, “Secured debt” termini دين مضمون *dayn maḍmūn* – kafolatlangan qarz shaklida kalka qilingan) misollar bilan tahlil qilib oʻrganilgan.

Islom moliyasi savdo-sotiq terminlarida aynan semantik kalka koʻp uchraydi. Bunda semantik aniqlikni taʼminlash uchun affixsal qoliplardan foydalaniladi. Ayrim terminlar chet tillardan toʻliq tarjima yoʻli bilan, ayrimlari esa toʻgʻridan-toʻgʻri (oʻzgarishsiz yoki fonetik moslashtirish orqali) lingvistik oʻzlashma sifatida arab tiliga kirgani va bu hol, hozirgi iqtisodiy faoliyat bilan bogʻliq terminologiyada yaqqol koʻzga tashlanishi koʻrsatib oʻtilgan (masalan: bank – بنك *bank*, *cheque* شيك – , *franchise* عقد الترخيص التجاري *‘aqd al-tarkhīṣ al-tijārī*).

Ishning **“Islom moliyasi savdo-sotiq terminologiyasining semantik va paradigmatic xususiyatlari”** nomli uchinchi bobi 3.1 **“Islom moliyasiga oid savdo-sotiq terminlarining semantik-paradigmatic munosabatlari”** nomli faslida soha terminlarining paradigmatic munosabatlari tahlil qilingan. Savdo-sotiq terminlarining semantik-paradigmatic tahlili ichki maʼno yaqinligiga koʻra bir necha semantik guruhlariga ajralishini talab etadi. Masalan, savdo bitimlari va shartnomalariga oid terminlar, qarz-kredit munosabatlariga doir terminlar, pul birliklari va bozor infratuzilmasiga taalluqli terminlar alohida leksik toʻplamlar sifatida shakllangan. Har bir guruh ichida terminlar mazmunan yaqin boʻlib, ular oʻrtasida gradonimik, giper-giperonimik va sinonimik, antonimik bogʻlanishlar singari munosabatlar mavjud. Sohaga oid terminlar oʻzaro sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya, paronimiya, hamda giper-giperonimiya munosabatlari orqali paradigmatic qatlam hosil qiladi. Shu asosda savdo-sotiq leksikasi semantik jihatdan bir necha yirik uyalar shaklida namoyon boʻladi.

Sinonimiya: ayrim islom moliyasi savdo-sotiq terminlari maʼnodosh tarzda ishlatiladi. Masalan, بيع *bay* – sotib olish = شراء *shirā* – sotib olish; فساد *fasād* va بطلان *butlān*, فقير *faqīr* va مسكين *miskīn* oʻrtasidagi sinonimiya haqida ham shu kabi farqlar mavjud³⁸.

Antonimiya: qarama-qarshi terminlar ham mavjud. Masalan, غني *ghanīyy* – boy = فقير *faqīr* – kambagʻal; tijorat natijasi doirasida ربح *ribḥ* – foyda = خسارة *khasārah* –

³⁸ عبد الوهاب خلاف الاصطلاحات الفقهية مجلة مجمع اللغة العربية بالقاهرة، العدد: ٧، السنة: ١٩٥٣، ص: ٢٤٠.

zarar; narx bahosi doirasida *ghālin* – qimmat = *ṛakhīṣ* – arzon misollarida ko‘rish mumkin³⁹.

Omonimiya: ayrim terminlar turli kontekstlarda turlicha ma’noda keladi. Masalan, *ayn* – bir tomondan “mol-mulk” ma’nosida, boshqa tomondan “ko‘z” yoki “shaxs” ma’nosida; *ṣarf* – “pul almashinuvi” hamda “so‘zlash” ma’nolarida ishlatilishi mumkin.

Polisemiya: ba’zi terminlarda ma’no ko‘p qirraligi kuzatiladi. Masalan, *amānah*. Birinchi, xiyonatning ziddi (ya’ni sadoqat, ishonchlilik, aldamaslik); ikkinchi savdo-sotiq kontekstida omonat (depozit, ishonib topshirilgan narsa) ma’nosida ishlatiladi. *rahn* – garov qo‘yish, garov qo‘yilgan narsa-buyum. (765 ta) terminlarning 30 % (229 ta) tashqi polisemantik xususiyatga ega. Paronimiya: o‘zaro tovush jihatdan yaqin, lekin ma’no jihatidan farqlanuvchi terminlar mavjud. Masalan, *wakālah* (vakillik) va *wakīl* (vakil), *muḍārabah* (foйда sherikchiligi) va *muqāradah* (moliyaviy sheriklikning boshqa turi). Bu terminlar tovush jihatdan yaqin bo‘lsa-da, semantik farq qilishi bilan ahamiyatlidir. Giperonimiya va giponimiya: umumiy va xususiy ma’no munosabatlari ham kuzatiladi. Masalan, *uqūd* (shartnomalar) giperonim bo‘lib, uning ostida *bay‘* (savdo shartnomasi), *ijārah* (ijara shartnomasi), *murābahah* (foydali savdo shartnomasi), *muḍārabah* (foйда sherikchiligi shartnomasi), *salam* (oldindan to‘lovli shartnoma) kabi giponimlar mavjud.

Dissertatsiyaning ushbu qismida islom moliyasi savdo-sotiq terminlari mazmuniga ko‘ra oltita semantik uyaga: savdo aktlari, shartnomalar, moliyaviy-hisob vositalari, mulk va tovar kategoriyalari, huquqiy tavsiflar va taqiqlovchi terminlar guruhiga ega. 1) Birinchi uya savdo jarayonining bevosita amalga oshirilish shakllari, usullari va turlaridan iborat bo‘lib, unga *muqāyadah* – (barter) ayirboshlash; *bay‘* – savdo; *ṣarf* – pul almashinuvi; *salam* – oldindan to‘lovga asoslangan shartnoma terminlari kiradi; 2) Ikkinchi uyada shartnomaviy-huquqiy bitimlar, ularning turlari va tarkibiy elementlari, jumladan *sharikah* – sheriklik, *muḍārabah* – foйда sherikchiligi, *muzāra‘ah* – yer sherikchiligi terminlari joy oladi; 3) Uchinchi uyada moliyaviy amaliyotida qo‘llanadigan pul birliklari, o‘lchovlar, hisob va to‘lov vositalariga oid terminlar, masalan *dīnār* – tilla pul, *dirham* – kumush pul, *bahraj* – Bahosi past, qadrsiz tanga; *juzāf* – aniq miqdorsiz, chamalab sotish kabi terminlari kabi; 4) To‘rtinchi uyada savdo predmiti – mulk turlari, tovarlar va ularning sifat tavsiflariga oid terminlar, masalan, *mabī‘*, *arbūn*; *milḥ* – shaxsiy mulk, egalik; *sil‘ah* – tovar kabi terminlar; 5) Beshichi uyada savdo bitimlarining huquqiy, amaliy shartlari va yaroqlilik mezonlariga oid terminlar. Masalan, *bāṭil* – botil, huquqiy kiuchga ega bo‘lmagan bitim; *fāsīd* – fosid, shartlari to‘liq bajarilmagan bitim; *ṣahīḥ* – to‘g‘ri, shariatga muvofiq bitim; *lāzim* – majburiy kuchga ega bitim kabi terminlar; 6) Oltinchi uyada savdoda taqiqlangan, man etilgan amallarni bildiruvchi terminlar. Masalan, *gharar* – mavhuj, noaniq; *qimār* – qimor, tavakkal, gardikam, *ṣafqah fī ṣafqah* – bitim ichida bitim; *jam‘ bayna*

³⁹ Qarang: محمد تقي العثماني. فقه البيوع. م باكستان - كراتشي. مكتبة معارف القرآن. ٢٠١٥. ج. ١: ٦١٩. ج. ٢: ٦٣٢.

‘aqdayn – ikkita bitimni jamlash; تعليق العقد على الغرر *ta’līyq al-‘aqd ‘alal gharar* – bitimni mavhum ishga bog‘lash kabi terminlar. Mazkur oltita uyadan iborat savdo-sotiq terminlarining paradigmatic tizimi bir-biridan semantik markazi va huquqiy qo‘llanish sohasi bilan farqlanadi⁴⁰. Semantik uyalar orqali terminlar tizimlashtiriladi, paradigmatic aloqalar ochib beriladi va islom moliyasidagi huquqiy konseptlarning izchil hamda aniq ifodalanishi ta’minlanadi.

Uchinchi bobning 3.2 **“Soha terminlarining semantik taraqqiyoti va ma’no transformasiyasi”** faslida terminlarining semantik taraqqiyoti masalasi tahlil qilingan. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlari, avvalo, lug‘aviy so‘zlardan iborat bo‘lib, ular aslida tilda, ya’ni islomdan avvalgi arab tilida ma’no kasb etgan. So‘ngra islom kelib, bu so‘zlarning ma’nolarini o‘zgartirdi va ularni rivojlantirdi. Shariat ilmlari, xususan fiqh ilmi doirasida yangi ma’nolarni ifodalash uchun bu so‘zlar ishlatila boshlandi va islom huquqi negizidagi moliyaviy savdo-sotiqqa xos terminlar sifatida tanildi⁴¹. Shu tariqa, ular o‘zining umumiy lug‘aviy ma’nosidan chiqib, fiqhiy terminologiyaning maxsus istilohiy ma’nosiga ega so‘zga aylandi⁴². Ibn Foris bu semantik jarayonni quyidagicha izohlagan: “Johiliyat davridagi arablar o‘z ota-bobolaridan meros bo‘lgan til, odob-axloq, ibodat va qurbonliklariga amal qilardilar. Alloh taolo islomni yuborganida esa holatlar o‘zgardi, dinlar naskh-bekor qilindi, ba’zi amallar bekor bo‘ldi va tilga oid so‘zlar o‘z o‘rnidan boshqa o‘rinlarga ko‘chirildi (asl lug‘aviy ma’nosidan boshqa ma’noga o‘zgardi)”⁴³.

Soha mutaxassislari arab tilida ilgari mavjud bo‘lmagan ba’zi terminlardan foydalanishga majbur bo‘ldilar, chunki arab tilining mavjud leksik boyligi yangi tushunchalarni ifodalashga imkoniyati yetmasdi. Shuning uchun ular ayrim xorijiy so‘zlarni arablashtirib, ularni ma’nosini o‘zgartirib ishlatdilar. Shuningdek, ular *ishtiyoq-so‘z yasash, kinoya va majozdan* foydalanish orqali yangi terminlar yaratdilar⁴⁴. Bular esa fiqh terminlarida qator semantikaning sinonimiya, polissemiya, monosemantik kabi masalalarini yuzaga chiqardi. Islom moliyasi terminologiyasi borasida izlanish qilgan tilshunos, islomshunoslar islom huquqi terminologiyasi, shu qatorda islom moliyasi ham, yopiq ekani, ularda semantik taraqqiyot bo‘lmasligini ta’kidlaydi⁴⁵. Bu semantik taraqqiyot – التطور الدلالي *al-tatawwur al-dilāliyni* to‘g‘ri tushunmaganlikdan kelib chiqqan. Sababi semantik taraqqiyot deganda so‘zning butkul mohiyatan o‘zgarib ketishigina emas, balki mavjud ma’noda kengayish, torayish yoki unga teng boshqa bir ma’noga o‘tishi mumkin⁴⁶. Semantik taraqqiyot – ma’no o‘zgarishi yoki torayish kabi paradigmatic

⁴⁰ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв. – Ташкент: Фан, 1981. – 190 с.; Muhammad Ravvos Qal’aji. *al-Lug’a al-Inkliziyya wa-l-dab’ al-‘Arabī*. Tarjimon: Hamid Sādiq Qutaybī (ingliz tili), Qutb Mustafō Sāṭir (fransuz tili). – Bayrūt: Dār al-Nafā’is, 1-nashr, 1996. – 644 s; Xālid Fahmiy. *Turāth al-ma’ājim al-fiqhiyya*. – Al-Qāhirah: Dār al-maqāsid. 2014. – 667 s.

⁴¹ عادل عبد الجبار زايد، معجم ألفاظ العلم والمعرفة في اللغة العربية، مكتبة لبنان ناشرون، بيروت، ط ١، ١٩٩٧م. – ص.٢.

⁴² خالد الفهمي، تراث المعاجم الفقهية في العربية، دار المقاصد – القاهرة، ط ١. – ص.١٦. عبد الله بن الشيخ، مرجع سابق. – ص.٧٣.

⁴³ ابن فارس أحمد أبو الحسن، الصحابي في فقه اللغة وسنن العرب في كلامها، تحقيق: مصطفى الشويحي، مؤسسة بدران، بيروت، ١٩٦٣م. – ص.٨١، ٧٨. (باب الأسباب الإسلامية).

⁴⁴ حامد صادق قنبي، التطور الدلالي في لغة الفقهاء مجلة: اللسان العربي، مكتب تنسيق التعريب (الجامعة العربية)، الرباط، العدد: ٢٤، السنة: ١٩٨٤م. – ص.٢٢.

⁴⁵ وينظر: جرجي زيدان، اللغة العربية كائن حي، دار الهلال، القاهرة. – ص.٦٤-٦٥.

⁴⁶ خالد الفهمي، تراث المعاجم الفقهية في العربية، دار المقاصد – القاهرة، ط ١: ٢٠١٥. – ص.٥٠٢.

⁴⁶ الدكتور علي القاسمي، علم المصطلح (أسسه النظرية وتطبيقاته العملية)، لبنان: مكتبة لبنان ناشرون، 2019، ط ٢. – ص.٤٥٤.

xususiyatlar fundamental tushunchalarni ifodalovchi fiqh terminlari soʻz holidan fiqh ilmi terminologiyasiga kirib kelishida kuzatilishi va termin sifatida shakllanganidan keyin semantik oʻzgarish kuzatilmaydi. Bunday paradigmatic oʻzgarishlar jarayon bilan bogʻliq terminlarda faoldir. Semantik taraqqiyotning toʻrtta Maʼno kengayishi; Maʼnoning torayishi (Tadqiqot koʻlamida bu holat kuzatilmadi), Maʼnoning pasayishi (fiqh terminlari – nikoh munosabatlariga doiralarida uchrasa-da, savdo-tijorat bilan bogʻliqlarida uchramaydi); Maʼnoning yuksalishi; Maʼno koʻchishi (Masalan, يَد *yad* – qoʻl soʻzi egalik, mulk maʼnosini bildiradi. أسبقية اليد – *asbaqiyah al-yad* – qoʻl bilan birinchi boʻlish) turlari savdo-sotiq terminologiyasida uchraydi.

XULOSA

1. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlari, maxsus leksik qatlamga mansub va arab tili tizimida faol ishlatiladi hamda oʻz mustaqil rivoj yoʻliga ega boʻlib, Qurʼon va hadis (VII asr), fiqhiy mazhablar shakllanishi (VIII–XI asrlar), oʻrta asrlar hamda hozirgi davr kabi toʻrt bosqichda taraqqiy etgan. Soha terminlarining shakllanish jarayoni turli tarixiy bosqichlarda asosan Qurʼon, hadis, fiqhiy manbalar hamda fors, ivrit, yunon, lotin, ingliz, fransuz va italyan kabi xorijiy tillar taʼsirida kechgan.

2. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlarining shakllanishiga Qurʼon karim va hadislarida kelgan moliyaviy tushunchalarni sharhlash, ijtimoiy ehtiyojlar va huquqiy tushunchalarni boshqa xalqlarga yetkazish zarurati turtki boʻlgan. Soha terminlari yasashda *ishtiqoq*, *naht*, *metafora*, *tavlid*, *kalka* va fonetik transliteratsiya usullari faol boʻlib, ular ichida ishtiqoq struktur jihatdan ixcham va semantik barqarorligi bilan eng sermahsulidir.

3. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlari umumisteʼmol soʻzlardan terminlashish, boshqa sohalardan determinlashish, yoki mavjud huquqiy leksemalarga yangi maʼno yuklash transterminlashish orqali yuzaga kelgan va qator terminlar internatsionallashgan. Ularning tuzilishida affiksatsiyaning barcha turlari, prefiks, suffiks va sirkumafikslar keng qoʻllanadi. Sohaga oid affiksali termin yasashda إفعال *ifʼāl*, تفعل *tafaʼʼul*, مفاعلة *mufaʼalah*, استفعال *istifʼāl*, تفاعل *tafaʼul* boblari terminologik aniqlik va izchillikni taʼminlovchi asosiy qoliplardir.

4. Struktur tahlil natijasida islom moliyasi savdo-sotiq terminlari bir komponent (41%), ikki komponent (42%), uch va undan ortiq komponentdan (17,81%) iborat. 148 ta terminda kvaziy sinonimiya kuzatilgan boʻlib, bu holat tarixiy variantlilik va mazhablararo tafovutlar bilan izohlanadi. Yangi zamonaviy terminlarning 12,16% kalka, 2% oʻzlashma, qolganlari esa oʻz til imkoniyatlari orqali yasalgan.

5. Islom moliyasi savdo-sotiq terminologiyasi semantik oʻzaro bogʻlangan, tartibli tizimni tashkil etib, ichki paradigmatic munosabatlar asosida shakllangan. Terminlar oʻrtasida sinonimiya, antonimiya (jumladan, kontrar va komplementar), giponimiya-giperonimiya, gradatsiya, meronimiya, konversiya (oʻzaro rol almashuvchi birliklar), shuningdek, polisemiya asoslangan ichki semantik differensiyalashish va terminologik omonimiya kabi munosabatlar kuzatiladi.

6. Soha terminlarining paradigmatic munosabatlari terminologik maydonning ierarxik tuzilishini shakllantirib, tushunchalar oʻrtasidagi oppozitsion, darajaviy va

funksional bog'liqliklarni yuzaga chiqaradi hamda sohaviy terminologiyaning ichki izchilligi va semantik uyg'unligini ta'minlaydi. Evfemizm uslubi qator islom huquqi institutlarida ishlatilsa-da, savdo-sotiq terminlarida amalda mavjud emas.

7. Ma'no pasayishi va yuksalishi islom moliyasi savdo-sotiq terminlarida kuzatilmaydi. Bu ikki jihat hissiy rang berish bilan bog'ligi va terminlarda aynan shu jihat bo'lmasligi bilan harakterlanadi. Meliorativ o'zgarishda jonli tildagi birliklarning ma'nosi vaqt o'tishi bilan qadrlanadigan va ijobiyroq tushunchani bildiradigan darajaga ko'tarilsa-da, savdo-sotiq bilan bog'liq terminlarda kuzatilmaydi.

8. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlarida partonimiya aksariyat uchramaydi, ammo ayrim konseptlarda mavjud, boisi savdo terminlarida tarkibiy qismlarga ajraladigan jismoniy butunlikdan ko'ra, abstrakt-kognitiv tushunchalar ustun. Savdo-sotiq terminologiyasida graduonimiya, asosan, sifatlovchi va baholovchi terminlarda aks etadi.

9. Islom moliyasi savdo-sotiq terminlarida polisemiya ko'proq lug'aviy ma'no va terminologik ma'noning farqlanishida namoyon bo'lib, (765 ta) terminlarning 30 % (229 ta) polisemantik, 70% (536 ta) monosemantik xususiyatga ega.

10. Savdo-sotiq terminlarining lug'aviy, urfiy va terminologik ma'nolari borligi va ularni farqlash islom moliyasi savdo-sotiq terminlarining semantik maydonini tugal chegaralashga yordam berib, yangi tushunchalarni ifoda qilishda sof arabcha so'zlardan foydalanishga va ularning termin sifatida semantik tizimlilikini oshirishga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

КУРБОНОВ САЛОХИДДИН УРМОНБЕК УГЛИ

**СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ТОРГОВО-
КОММЕРЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В СФЕРЕ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ**

10.00.05 – Языки и литература народов Азии и Африки

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание учёной степени доктора философии
(PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ наукам**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за номером № В2025.2.PhD/Fil3425.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Автореферат диссертации размещён на веб-странице Учёного совета (www.tsuos.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz) на трёх языках (узбекском, русском и английском).

Научный руководитель:

Бегматова Бузахро Маъруфжановна
кандидат юридических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Усмонова Шоира Рустамовна
доктор филологических наук, профессор

Казакбаев Акбар Акмалджанович
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Защита диссертации состоится «3» октября 2026 г. в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения по адресу: 100060, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 20. Тел.: (99871) 233-45-21, факс: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована под № 156). (Адрес: 100060, г. Ташкент, ул. Амира Темура. Тел.: (99871) 233-45-21)

Автореферат диссертации разослан «22» сентября 2026 года

(Протокол реестра рассылки № 156 от «22» сентября 2026 года).



А.М.Маннонов

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филол. наук, профессор

Н.Р.Исматуллаева

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
философии по филологическим наукам
(PhD), доцент

Х.З.Алимова

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор филол. наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом языкознании особое внимание уделяется стандартизации терминов исламских финансов, согласованию соотношения «понятие – термин – дефиниция», установлению их эквивалентов в национальных языках, а также созданию электронных словарей и терминологических баз данных. Отсутствие чётко установленных связей между историческим формированием, структурными моделями, лексическими и терминологическими значениями, а также парадигматическими отношениями арабских торгово-коммерческих терминов исламских финансов обуславливает определённые несоответствия, связанные с их классификацией, переводом и унифицированным применением на практике. Данное обстоятельство определяет необходимость упорядочения употребления этих терминов в «*Al-Mawsū‘a al-fiqhiyya al-kuwaytiyya*» и стандартах ААОIFI на основе структурно-семантических критериев, а также совершенствования их узбекских эквивалентов.

В мировом языкознании в исследованиях, посвящённых терминологии исламских финансов, изучаются отражение арабских финансовых терминов в словарях, их перевод на другие языки, варианты написания и транслитерации, а также активизация классических фикховых терминов при наименовании современных финансовых продуктов. Приоритетными задачами данного направления являются систематизация терминов на основе соотношения «понятие – термин – дефиниция», определение моделей их образования, упорядочение вариантности и синонимии, согласование многоязычных эквивалентов, а также анализ новых терминов, формирующихся под влиянием цифровых финансов. В перспективе актуальным является проведение исследований по таким темам, как вопросы перевода терминов исламских финансов, представленных в стандартах ААОIFI, на узбекский язык, сравнительно-типологические особенности терминов исламских финансов в арабском и узбекском языках, лексико-семантическая характеристика неологизмов цифровых исламских финансов, создание электронного корпуса терминов исламских финансов, проблемы транслитерации арабских терминов исламских финансов на узбекском языке, а также создание многоязычного электронного словаря терминов исламских финансов.

В нашей стране проводится научно-практическая работа по внедрению услуг исламского финансирования, формированию соответствующей нормативно-правовой базы, адаптации международных стандартов к национальной практике, подготовке квалифицированных специалистов и переводу научных источников на узбекский язык. В частности, в рамках сотрудничества Центрального банка с IFSB и INCEIF реализуются инициативы, направленные на развитие индустрии исламских финансов, проведение совместных исследований и перевод специализированной литературы¹. Как

¹ Центральный банк Республики Узбекистан. «Центральный банк и IFSB обсудили проект «дорожной карты» по развитию индустрии исламских финансов в Узбекистане». 7 мая 2026 года. https://cbu.uz/uz/press_center/news/3843165/; Центральный банк Республики Узбекистан. «Узбекистан принимает XX Международный форум учёных в области исламских финансов». 17 сентября 2025 года. https://cbu.uz/uz/press_center/news/2828298/

отметил Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, «по результатам проведённого опроса 38 процентов предпринимателей выразили желание получить ресурсы на основе исламского финансирования», а внедрение таких финансовых услуг «послужит стимулом для привлечения большого числа инвесторов и появления дополнительных ресурсов в размере 5 миллиардов долларов»², в связи с чем необходимо совершенствовать законодательные основы исламских финансов, внедрять международные стандарты в национальную практику и формировать узбекскую терминологическую базу данной сферы. Для реализации указанных задач актуальными являются установление узбекских эквивалентов арабских торгово-коммерческих терминов исламских финансов, унификация их написания, транслитерации и дефиниций, а также создание двуязычного терминологического словаря и электронной базы данных.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, определённых в указах Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 26 сентября 2025 года № УП-176 «О мерах по поддержке субъектов предпринимательства на основе новых подходов», от 30 марта 2026 года № УП-48 «О создании Ташкентского международного финансового центра», постановлениях Президента Республики Узбекистан от 1 февраля 2019 года № ПП-4147 «О членстве Республики Узбекистан в Международной исламской торгово-финансовой корпорации и Исламской корпорации по страхованию инвестиций и экспортных кредитов», от 16 апреля 2020 года № ПП-4680 «О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в области востоковедения», от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», от 4 сентября 2023 года № ПП-292 «О мерах по реализации задач, определённых в ходе открытого диалога Президента Республики Узбекистан с предпринимателями в 2023 году», а также в иных нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике. Данное исследование проведено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-нравственному развитию информационного общества и демократического государства и пути их осуществления».

Степень изученности проблемы. Вопрос торгово-коммерческих терминов в сфере исламских финансов имеет давние исторические корни, их формирование и развитие включает в себя несколько этапов. Исследования в

² Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на встрече с предпринимателями страны, проведённой в формате открытого диалога. 20 августа 2024 года. <https://president.uz/oz/lists/view/7481>

этой области проводились преимущественно на стыке юриспруденции, экономики, переводоведения и языкознания, при этом каждый период характеризовался собственной научным подходом. В классический период теоретические основы торговых терминов широко освещались в трудах исламских правоведов, таких как Абу Ханифа, Шафии, Ибн Рушда, Ибн Кудамы, Касани, Маргилани, Ибн Хумама³. В средние века Абу Хатим Рази, Хорезми, Ибн Фарис, Саййид Шариф Джурджани, Ахмад Фаюми, Таханави, Муртаза Забиди, Абу Хафс Насафи⁴ активно исследовали термины, связанные с исламскими финансами фикху имущественно-договорных отношений (*fiqh al-mu'āmalāt*).

В XX веке, с развитием исламской экономики и финансов, возрос интерес к структурному и семантическому аспектам торговых терминов. Ряд ученых в области исламского права – Мухаммадтаки Усмани, Саййид Сабик, Али Карадаги, Абдусаттар Абу Гудда, Мунзир Кахф, Абдулкарим Зайдан⁵ рассматривали значения экономических и правовых терминов и пытались адаптировать их к современным финансовым институтам. Такие ученые, как Таммам Хасан, Ибрахим Анис, Ахмад Мухтар Умар, Мухаммад Кубайси, Рамзи Мунир, Ахмад Фарадж⁶ проанализировали морфологическую структуру и лексикографические аспекты единиц и терминов в арабском языке. Кроме

³ Abū Ḥanīfa an-Nu'mān. al-Fiqh al-Akbar. – Qāhira: Dār al-Salām, 2005. – 112 ş.; Imām Muḥammad ibn Idrīs ash-Shāfi'ī. al-Umm. – Bayrūt: Dār al-Ma'rifa, 2001. – Vol. 7; Ibn Rushd al-Qurtubī (Abū al-Walīd Muḥammad ibn Aḥmad). Bidāyat al-Mujtahid wa Nihāyat al-Muqtaṣid. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1995. Vol. 2; Ibn Qudāma al-Maqdisī. al-Mughnī. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1997. – J. 10; 'Alā'uddīn Abū Bakr ibn Mas'ūd al-Kāsānī. Badā'i' as-Sanā'i' fī Tartīb ash-Sharā'i'. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1986. – Vol. 7; 'Alī ibn Abū Bakr ibn 'Abd al-Jalīl Burhān al-Dīn al-Marghīnānī. Al-Hidāya sharḥ Bidāyat al-Mubtadī. – Bayrūt, Lubnān: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 2010. – J.1. – 488 ş; J. 2. – 632 ş.; Ibn al-Humām, Kamāl al-Dīn Muḥammad ibn 'Abd al-Wāḥid. Faṭḥ al-Qadīr sharḥ al-Hidāya, ma'a Takmilat Faṭḥ al-Qadīr. – Beirut: Maktabat al-Rashīdiyya, 2017. – Vol. 1-10.

⁴ Abu Ḥatīm al-Rāziy, Al-Lafz wa at-tasnīyah fī al-kalimāt al-islāmīyah. Al-Xorazmiy, Abū 'Abdallāh Muḥammad ibn Aḥmad. Mafātīḥ al-'Ulūm. Taḍqīq va taqḍīm: 'Abd al-Amīr 'Ālim. Bayrūt: Dār al-Manāhil, 1-nashr, 2008. – 318 ş.; *mot же автор*. Al-ziynah fī al-kalimāt al-'arabiyya va al-islāmīyya. – San'ā: Markaz al-Dirāsāt wa al-Buḥūth al-Yamaniy, 1994. – 423 ş.; Al-Xorazmiy, Abū 'Abdallāh Muḥammad ibn Aḥmad. Mafātīḥ al-'Ulūm. Taḍqīq va taqḍīm: 'Abd al-Amīr 'Ālim. – Bayrūt: Dār al-Manāhil, 2008. – 318 ş.; Aḥmad ibn Fāris ibn Zakariyyā. as-Sāhibī fī fiqh al-lugha wa-sunan al-'Arab fī kalāmihā. Taḥqīq va sharḥ: Aḥmad Ḥasan Basaj. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1-nashr, 1997. – 238 ş.; Al-Sayyid al-Sharīf al-Jurjānī. Al-Ta'rīfāt (The Definitions). – Beirut, Lebanon: Dar Al-Kutub Al-'Ilmiyah, 1983. – 256 ş.; Abū al-'Abbās Aḥmad al-Fayyūmīy. al-Miṣbāḥ al-Munīr fī Gharīb ash-Sharḥ al-Kabīr. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1997. – 704 ş.; Muḥammad 'Alī at-Tahānawī. Mu'jam iṣṭilāḥāt al-funūn. – Bayrūt: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1996. Vol. 2; Murtazo az-Zabidiy. Tāj al-'Arūs min Jawāhir al-Qāmūs. – Bayrūt: Dār maktabat al-ḥayāt, 1999. Vol. 1-10; An-Nasafī, Najm al-Dīn Abū Ḥafṣ 'Umar ibn Muḥammad. Ṭalabatu ṭ-ṭalaba fī al-iṣṭilāḥāt al-fiqhiyya. Taḥqīq va taqḍīm: Shaykh Khālīd 'Abd al-Raḥmān al-'Alawī. – Bayrūt: Dār an-Nafā'is, 1985. – 441 ş.

⁵ Muḥammad Taqī 'Usmānī. An Introduction to Islamic Finance. – Karachi: Idāratul Ma'arif, 1998. – 220 ş.; *mot же автор*. Fiqh al-Buyū'. – Jidda: Dār al-Ma'arif, 2005. Vol. 2; Sayyid Sābiq. Fiqh as-Sunnah. – Qohira: Dār al-Fikr, 1996. – 3 j; 'Alī al-Qaradāghī. al-'Uqūd al-Māliyya al-Murakkaba fī al-Fiqh al-Islāmī. – Doha: Ma'had al-Buḥūth al-Fiqhiyya, 2001. – 312 ş; 'Abd al-Sattār Abū Ghuddah. Dirāsāt fī al-Iqtisād al-Islāmī. – Jidda: Markaz al-Iqtisād al-Islāmī, 2002. – 278 ş.; Monzer Kahf. The Islamic Economy: Analytical Study of the Functioning of the Islamic Economic System. – Plainfield: Muslim Students' Association of the U.S. and Canada, 1978. – 110 p; *mot же автор*. Islamic Finance: Theory and Practice. – Riyadh: Islamic Research and Training Institute (IRTI), 2006. V.1 – 340 ş; V.2 – 295 ş; V.3 – 424 ş.; 'Abd al-Karīm Zaydān. al-Madkhal li Dirāsāt ash-Sharī'a al-Islāmīyya. – Bayrūt: Mu'assasat ar-Risāla, 1993; *mot же автор*. Nizām al-Qadā' fī ash-Sharī'a al-Islāmīyya. – Bayrūt: Mu'assasat ar-Risāla, 1997. – 352 ş.

⁶ Ḥassān, Tamām. Al-lugha al-'arabiyyah: ma'nāhā wa mabnāhā. – al-Qāhira: Dār al-thaqāfah, 1994. – 376 ş; Anīs, Ibrāhīm. Min Asrār lugha. – al-Qāhira: Maktabat al-injilū al-miṣriyyah, 1978. – 357 ş; Aḥmad Mukhtār 'Umar wa ghayruh. An-Naḥw al-asāsī. – al-Kuwayt: Dār al-salāsīl li al-ṭibā'ah wa al-nashr, 1994. – 657 ş; Muḥammad al-Kubaysī. al-Islāḥ al-Lughawī wa Taṭawwur at-Tasmiya al-'Ilmiyya. – Bag'dod: Dār al-Ḥurriyya, 1985. – 292 ş; Ramzī Munīr Ba'labakī. al-Mawrid: Arabic-English Dictionary. – Bayrūt: Dār al-'Ilm lil-Malāyīn, 2005. – 1200 ş; 'Abd al-Ḥamīd al-Faraj. al-Lugha wa al-Ma'nā fī al-Fikr al-'Arabī al-Mu'āṣir. – Damashq: Dār al-Fikr, 2008. – 356 ş.

того, следует отдельно отметить арабских лингвистов Мухаммада Хиджази, Али Касими, Мухаммада Рауфа⁷, изучавших общие вопросы арабской терминологии. Кроме того, такие учёные, как Мухаммад Раввас и Халид Фахми⁸ исследовали генеалогические и лексикографические аспекты терминов, употребляемых в контексте исламского права.

Работы российских ученых, таких как В. Белкина, А. Беловой, Б. Гранде, Н. Ковыршиной⁹, а также узбекских исследователей З. Алимжановой и Т. Кадырова¹⁰, изучавших лексикологию арабского языка, предоставляют общую информацию о словообразовании в арабском языке.

Учёные Узбекистана, в частности А. Хаютин, С. Акобиров, Р. Донияров, А. Хаджиев, А. Куранбеков, Н. Касимов, С. Насирова, С. Хошимова, С. Мустафаева, Х. Мирзахмедова, Л. Султанова, Д. Адиханов, Н. Умарова¹¹ внесли значительный вклад в изучение теоретических вопросов терминологии различных восточных языков.

В разные периоды языковеды изучали торгово-коммерческие термины с использованием различных исследовательских методов. В частности, Х. Дадабаев проводил генетический анализ торгово-коммерческих терминов в тюркских источниках и выделял их семантико-тематические группы¹². Кроме того, опубликован пояснительный словарь банковских и финансовых терминов, непосредственно связанных с торговлей¹³. Несмотря на наличие ряда научных работ, существует ряд проблем, требующих дополнительного уточнения с точки зрения современных лингвистических традиций. К ним относятся: структурно-семантическая составляющая терминов исламской финансовой сферы, способы образования и характер ассимиляции элементов иностранного

⁷ Hıgāzī M.F. al-Uşus al-lugāwīyya li-‘ilm al-muṣṭalaḥ. – al-Qāhira, 1993. – 207 ş.; Qāsimī ‘Alī ‘Ilm al-muṣṭalaḥ: ‘Uşūshu al-naẓariyya wa-taṭbīqātuhu al-‘ilmiyya. – Bayrūt, 2008. – 186 ş.; Ra’ūf M. ‘A. Tārīḥ al-tarğama al-‘arabiyya bayna al-Şarq al-‘Arabī wa-al-Ġarb al-‘Urūbbī. – al-Qāhira, 2018. – 87 ş.

⁸ Muhammad Ravvas Qal’aji. al-Lug’a al-Inkliziyya wa-l-ḡabṭ al-‘Arabī. Tarjimon: Hamid Sādiq Qutaybī (ingliz tili), Qutb Mustafo Sāṭir (fransuz tili). – Bayrūt: Dār al-Nafā’is, 1-nashr, 1996. – 644 ş; Xālid Fahmiy. Turāth al-ma’ājim al-fiqhiyya. – Al-Qāhirah: Dār al-maḡāsid. 2014. – 667 ş.

⁹ Белкин, В.М. Арабская лексикология. – М.: Московский университет, 1975. – 200 с; Белова А.Г. Введение в арабскую филологию. – М.: Институт востоковедения РАН, 2001. – 265 с.; Гранде, Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. 2-е изд. – М.: Восточная литература, 2001. – 542 с; Ковыршина Н.Б., Самоделкина Л.В. Лексикология арабского языка. – М.: РУДН, 2008. – 56 с.

